

UDC: 342.41(045)(575.1)

DUNYOVIY DAVLAT VA DIN O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI: XORIJ VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI

Toshqulov Jo'raboy,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

Davlat va huquq Instituti bo'lim boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

ORCID: 0000-0002-4492-4665

e-mail: joraboy89@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada davlat va din munosabatlarining mazmun-mohiyati Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniya Federativ Respublikasi, Polsha Respublikasi, Fransiya Respublikasi, Turkiya Respublikasi, Yaponiya, Estoniya Respublikasi, Chexiya Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyalariga muvofiq tahlil qilinadi; vijdon erkinligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, ular uchun xos bo'lgan umumiylik, o'xshashlik va o'ziga xosliklar dunyoviylik, ilmiylik va qiyoslash usullaridan foydalangan holda o'rganilgan, tegishli xulosalar chiqarilgan, kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ilmiy-tadqiqot ishlari yo'nalishlari haqida taklif-tavsiyalar bildirilgan. Hozirgi davrda ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy sohalarida diniy omilning ta'siri kuchayib borayotgani, mamlakatimizda konstitutsiyaviy islohotlar o'tkazishga qizg'in tayyorgarlik ko'rilyotganini inobatga olib, muallif ilmiy jamoatchilikning alohida diqqat-e'tibori quyidagilarga qaratilishini dolzarb deb hisoblaydi: davlat va din o'rtasidagi munosabatlarga oid xalqaro va mintaqaviy hujjatlarni chuqur va atroflicha ilmiy tahlil qilish; davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalar genezisi va evolyutsiyasiga bag'ishlangan keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish; hozirgi davrda amalda bo'lgan davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi xorijiy, shu jumladan, dunyoviy davlatlar qonunchiligini qiyosiy o'rganish, bu borada erishilgan yutuqlardan milliy qonunchilikni takomillashtirishda tanqidiy foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar berish. Shuningdek, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga harakat qilayotgan ijtimoiy-siyosiy kuchlarning faollashuvi, ularning dindan, ayniqsa, islomdan niqob sifatida foydalanayotgani, mintaqalar va xalqaro xavfsizlikka jiddiy tahdid solayotganini inobatga olgan holda, "Diniy niqob ostidagi terrorchilikka qarshi kurash" to'g'risidagi konvensiya loyihasini ishlab chiqish va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilinishi davr talabidir.

Kalit so'zlar: davlat, din, dunyoviy davlat, teokratik davlat, klerikal davlat, ateistik davlat, diniy konfessiya, dunyoviy dinlar, milliy dinlar, xristianlik, islom, buddaviylik, diniy bag'rikenglik, diniy tashkilot, diniy ta'lim, ko'p konfessiyalik, vijdon erkinligi, millat, irq.

КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВАЯ ОСНОВА ОТНОШЕНИЙ СВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА И РЕЛИГИИ: ЗАРУБЕЖНЫЙ И УЗБЕКИСТАНСКИЙ ОПЫТ

Тошқулов Журабой,

доктор юридических наук, профессор,

заведующий отделом Института государства и права

Академии наук Республики Узбекистан

Аннотация. В статье анализируются типы государств с точки зрения содержания и сущности государственно-религиозных отношений, конституционно-правовых основ свободы

совести согласно конституциям Соединенных Штатов Америки, Федеративной Республики Германии, Польши, Французской Республики, Турецкой Республики, Японии, Эстонской Республики, Чешской Республики и Республики Узбекистан, их общие черты, сходства и различия, с использованием научного и сравнительного методов, сделаны соответствующие выводы, высказаны предложения по направлениям научно-исследовательской работы, которые будут проводиться в будущем. Учитывая усиление влияния религиозного фактора в общественно-политической, духовно-идеологической сферах в текущий период, а также принимая во внимание усиленную подготовку конституционных реформ в нашей стране, автор считает актуальным: глубокое и всестороннее изучение международных и региональных документов о взаимоотношениях государства и религии с их научным анализом; проведение широких научных исследований генезиса и эволюции норм, регулирующих отношения между государством и религией; сравнительное исследование законодательства зарубежных, в том числе светских стран, регулирующего отношения государства и религии на практике в текущий период, и внесение предложений и рекомендаций по критическому использованию достижений в этом отношении в совершенствовании национального законодательства. Также с учетом активизации общественно-политических сил, пытающихся использовать религию в политических целях, и того факта, что они представляют серьезную угрозу странам, регионам и международной безопасности, использующим религию в качестве маскировки, особенно ислама, разработка проекта «Конвенции о борьбе с терроризмом под маской религии» и его принятие Генеральной Ассамблеей ООН является требованием времени.

Ключевые слова: государство, религия, светское государство, теократическое государство, клерикальное государство, атеистическое государство, религиозная конфессия, светские религии, национальные религии, христианство, ислам, буддизм, религиозная терпимость, религиозная организация, религиозное образование, многоконфессиональный, свобода совести, национальность, раса.

CONSTITUTIONAL AND LEGAL BASIS OF RELATIONS BETWEEN THE SECULAR STATE AND RELIGION: FOREIGN AND UZBEKISTAN EXPERIENCE

Toshkulov Juraboy,

Head of the Department of the Institute of State and Law,
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Legal Sciences, Professor

Abstract. *The article analyzes the types of states in terms of the content and essence of state-religious relations, the constitutional and legal foundations of freedom of conscience in accordance with the constitutions of the United States of America, the Federal Republic of Germany, the Republic of Poland, the French Republic, the Republic of Turkey, Japan, the Republic of Estonia, Czech Republic and the Republic of Uzbekistan, their common features, similarities and differences, using secular scientific and comparative methods, appropriate conclusions are drawn, suggestions are made on the directions of research work that will be carried out in the future. Given the growing influence of the religious factor in the socio-political, spiritual and ideological spheres in the current period, and also taking the intensified preparation of constitutional reforms in our country into account, the author considers it relevant: a deep and comprehensive study of international and regional documents on the relationship between the state and religion with scientific analysis; conducting extensive scientific research on the genesis and evolution of the norms governing relations between the state and religion; a comparative study of the legislation of foreign, including secular countries, regulating relations between the state and religion in practice in the current period and making suggestions and recommendations on the critical use of achievements in this regard in improving national legislation. Also, considering the activation of socio-political forces that are trying to use religion for political purposes, and the fact that they pose a serious threat to countries,*

regions and international security that use religion as a disguise, especially Islam, the development of the draft "Convention against terrorism under the mask of religion" and its adoption by the UN General Assembly is a requirement of the time.

Keywords: *state, religion, secular state, theocratic state, clerical state, atheistic state, religious denomination, secular religions, national religions, Christianity, Islam, Buddhism, religious tolerance, religious organization, religious education, multi-religious, freedom of conscience, nationality, race.*

Kirish

Davlat va din o'rtasidagi munosabatlar ijtimoiy-gumanitar fanlarning azaliy dolzarb mavzularidan biri bo'lib kelgan. Ushbu mavzu hozirgi davrdagi eng aktual mavzulardan biri ekanligi hech kimga sir emas. Kelajakda ham bu mavzu o'z dolzarbligini saqlab qoladi.

Davlat va din o'rtasidagi munosabatlarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, davlatlarni tiplar (guruhlar)ga bo'lish borasida tadqiqotchilar o'rtasida yakdillik yo'q: ayrimlar ularni uch guruhga bo'lsa, boshqalar besh, ba'zilar olti guruhga bo'ladi [1, 2]. Ko'pchilik tadqiqotchilar davlat va din o'rtasidagi munosabatlarning mazmun-mohiyatiga ko'ra davlatlarni to'rt guruhga bo'ladi: dunyoviy, teokratik, klerikal va ateistik.

Hozirgi davrda davlat bilan din o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi tayanch va asos normalar deyarli barcha dunyoviy davlatlar konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan [3, 4]. Lekin bu normalar bilan tartibga solinadigan munosabatlar qamrovi turlicha.

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilimlarning umumiy ilmiy va maxsus usullari qo'llanildi: tarixiy, tizimli, qiyosiy-huquqiy, tahliliy, mantiqiy, huquqiy va boshqalar. Bu ma'lum darajada ishonchlilik va asoslilikni ta'minlashga imkon berdi.

Tadqiqot natijalari

Maqolamizning mavzusidan kelib chiqib, asosiy e'tiborni ayrim dunyoviy davlatlardagi davlat-din munosabatlarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslariga qaratamiz.

Amerika Qo'shma Shtatlari dunyoviy, eng rivojlangan, ko'p konfessiyali davlat. Mam-

lakatda protestantlar, yahudiylar, musulmonlar, buddistlar va boshqa din vakillari istiqomat qiladi [5]. Din siyosatdan, diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan. Fuqarolarning diniy e'tiqod erkinligi kafolatlangan. Davlat va diniy tashkilotlar bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaydi. Dindan siyosiy maqsadlarda foydalanish taqiqlangan. 1791-yilda AQSh Konstitutsiyasiga kiritilgan birinchi qo'shimchaga binoan, Kongress dinni mustahkamlaydigan yoki diniy e'tiqod erkinligini taqiqlovchi bironta ham qonun qabul qilishi mumkin emas [6, 70-b.].

Germaniya Federativ Respublikasi Markaziy Yevropada joylashgan, rivojlangan demokratik ko'p konfessiyali davlat. Aholisining mutlaq ko'pchiligini nemislar tashkil qiladi. Ushbu mamlakatda protestantlar, katoliklar, pravoslavlar, musulmonlar va hech qanday dinga e'tiqod qilmaydiganlar (36 %) istiqomat qiladi [7]. Germaniya Asosiy Qonunining 3-moddasiga binoan, hech kim jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, irqi, tili, tug'ilgan va yashash joyi, e'tiqodi, diniy yoki siyosiy qarashlariga ko'ra kamroq yoki ko'proq manfaatli holatga solinishi mumkin emas. Uning 4-moddasida qayd etilishicha, din, vijdon erkinligi, diniy hamda dunyoviy e'tiqodlar erkinligi daxlsizdir; dinga moneliksiz e'tiqod qilish kafolatlanadi; hech kim o'z vijdoniga xilof ravishda qo'lda qurol tutib, harbiy xizmatni o'tashga majbur qilinishi mumkin emas [8, 16-17-b.]. 12a-moddasiga ko'ra, qo'lda qurol tutib, harbiy xizmatni o'tashdan e'tiqod taqozosiga ko'ra bosh tortgan shaxs muqobil xizmatni o'tashga jalb etilishi mumkin. Muqobil xizmat muddati harbiy xizmat muddatidan oshib ketmasligi lozim [8, 156-b.].

Germaniya Asosiy Qonunning 7-moddasida maktab ta'limi va diniy ta'lim bilan bog'liq munosabatlarning asosiy qoidalari o'z aksini topgan. Ularga binoan, butun maktab ishi davlat nazoratidadir; bolalar tarbiyasiga vakolatli shaxslar ularning diniy ta'lim olish masalasini hal qilish huquqiga ega; diniy ta'lim umumiy maktablarda majburiy fan hisoblanadi, konfessiyalarga mansub bo'lmagan maktablar bundan mustasno. Diniy ta'lim davlatning nazorat qilish huquqiga zarar yetkazmagan holda, diniy jamoalar prinsiplariga muvofiq ravishda olib boriladi; o'qituvchi o'z xoxish-irodasiga zid holda diniy ta'lim berishga majbur emas; xususiy maktablar ochish huquqi kafolatlanadi; xususiy maktablar faqat davlat ruxsati bilangina umumiy maktablar o'rniga o'tishi mumkin va ular o'lkalarning qonunlariga bo'ysunadi; xususiy xalq maktabini tashkil etishga, agar ta'lim boshqarmasi bu alohida pedagogik manfaatlarga javob beradi, deb topsa yoki ushbu maktab bolalarni tarbiyalashga vakolatli bo'lgan shaxslarning taklifi bilan konfessiyalararo, konfessiyaviy yoki dunyoviy maktab sifatida ochilsa va agar jamoada bu xildagi xalq maktabi bo'lmasa, yo'l qo'yiladi [8, 157-158-b.].

Germaniya Asosiy Qonunning 33-moddasiga ko'ra, fuqarolik va siyosiy huquqlardan foydalanish davlat lavozimlarini erkin egallash imkoniyatini berish, shuningdek, davlat xizmatida ega bo'linadigan huquqlar e'tiqod qilinadigan dinga bog'liq emas; hech kim biron-bir dinga e'tiqod qilganligi yoki dunyoqarashga tarafdorligi sababli manfaat jihatdan birmuncha noqulay holatga tushirib qo'yilishi mumkin emas [6, 172-b.].

Germaniya Asosiy Qonunning 9-moddasiga ko'ra, barcha nemislar ittifoq va jamiyatlar tuzish huquqiga ega. Ushbu norma diniy tashkilotlar va jamoalar tuzishni ham nazarda tutadi. Mazkur moddaning ikkinchi bandidagi "maqsadi yoki faoliyati jinoyatchilik bo'yicha qonunlarga zid yoki konstitutsiyaviy tuzumga qarshi yoxud xalqlar o'rtasidagi bir-biri-

ni tushunish g'oyalariga qarshi qaratilgan birlashmalar taqiqlanadi" degan qoida ham diniy tashkilot va jamoalarga tatbiq etiladi [6, 158-b.].

Polsha Respublikasi Yevropaning markaziy qismida joylashgan ko'p millatli va ko'p konfessiyali demokratik huquqiy davlatlardan biridir. Uning hududida diniy e'tiqod bo'yicha katoliklar, pravoslavlar, iegova shohidlari, moterin cherkovining Augsburg e'tiqodchilari, pyatdesyatniklar (ellikchilar), yettinchi kun adventistlari, arman marosimlari katoliklari, novoapostollar, musulmonlar, Krishnani anglash xalqaro jamiyati a'zolari, Yevangelni tarqatuvchi (yoyuvchi)lar, xristian cherkovi vakillari istiqomat qiladi [8].

Yevropadagi boshqa davlatlar konstitutsiyalaridan farqli o'laroq, Polsha Respublikasi Konstitutsiyasida vijdon va diniy e'tiqod erkinligi, davlat-din munosabatlari, davlat bilan diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarning konstitutsiyaviy asoslariga nisbatan keng o'rin berilgan. Polsha Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasiga binoan [9, 6, 385-b.]:

- har kimga vijdon va din erkinligi ta'minlanadi;

- din erkinligi har kimning o'z tanlovi bo'yicha dinga e'tiqod qilish yoki uni qabul qilish, shuningdek, shaxsan o'zi yoki boshqalar bilan birgalikda ommaviy yoki xususiy tarzda diniy e'tiqodini izhor qilish, ibodat qilish, marosimlarda ishtirok etish, rasm-rusumlarga rioya qilish, diniy ta'lim olish kabilarni qamrab oladi;

- din erkinligi, shuningdek, dinga e'tiqod qiluvchilarning ehtiyojidan kelib chiqib, ibodatxona va boshqa diniy ibodat joylariga ega bo'lish va shaxsning o'zi turgan yoki istiqomat qilayotgan joyda diniy yordamdan foydalanish huquqini o'z ichiga oladi;

- ota-onalar o'zlarining e'tiqodlaridan kelib chiqib, bolalariga axloqiy, diniy tarbiya va ta'lim berish huquqiga ega;

- yuridik nizomi tartibga solingan cherkov yoki boshqa diniy jamiyatning dini uning

maktabida o'quv predmeti bo'lishi mumkin, lekin bu boshqa shaxslarning vijdon va din erkinligini buzmasligi lozim;

- dinga erkin e'tiqod qilish faqat qonun bilan va faqat davlat xavfsizligi, jamoat tartibi, sog'lig'i, axloq yoki boshqa shaxslarning huquq va erkinliklari muhofazasi zarurati tufayliga cheklanishi mumkin;

- hech kimni diniy marosimlarda qatnashish huquqidan mahrum qilish yoki marosimlarda qatnashishga majburlash mumkin emas;

- hech kim davlat hokimiyat organlariga dunyoqarashi, diniy e'tiqodi yoki qaysi dinga e'tiqod qilayotganini oshkor qilishga majbur etilishi mumkin emas.

Konstitutsiyaning 35-moddasida milliy va etnik kamchilikni tashkil etuvchilarning diniy o'ziga xosligini saqlab qolishning tashkiliy asoslariga oid norma o'z aksini topgan. Unda qayd etilishicha, "Ozchilikni tashkil qilgan millatlar va elatlar o'zlarining ta'lim, madaniy va diniy o'ziga xosligini muhofaza qilishga xizmat qiladigan muassasalarni tashkil etish huquqiga ega..." [6, 381-b.].

Konstitutsiyaning 85-moddasi 3-bandiga binoan, diniy e'tiqodlari yoki e'tiqod qiladigan axloqiy prinsiplari harbiy xizmatni o'tash imkonini bermaydigan fuqarolarga muqobil xizmatni qonun tomonidan belgilangan prinsiplarda o'tash majburiyati yuklanishi mumkin [6, 394-b.].

Fransiya Respublikasi G'arbiy Yevropada joylashgan, rivojlangan, ko'p konfessiyali davlat. Bu davlatda katoliklar, protestantlar, musulmonlar, yahudiylar va boshqa din vakillari yashaydi [10, 11, 62-66-b.]. Fransiya Konstitutsiyasining 1-moddasida qayd etilishicha: "Fransiya bo'linmas, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy respublikadir. U barcha fuqarolarning kelib chiqishi, irqi yoki dinidan qat'i nazar, qonun oldida tengligini ta'minlaydi. U barcha e'tiqodlarni hurmat qiladi" [6, 557-b.].

Hozirgi davrda Fransiyada amalda bo'lgan konstitutsiyaviy hujjatlardan biri – 1789-yil

26-avgustda qabul qilingan Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasiga binoan, har qanday siyosiy uyushma, shu jumladan, davlatning maqsadi Insonning tabiiy va ajralmas huquqlarini ta'minlashdir. Bular erkinlik, mulkka egalik, xavfsizlik va zulmga qarshilik ko'rsatish huquqlaridir. Bu yerda erkinlik deganda, diniy e'tiqod erkinligi ham nazarda tutilmoqda.

Deklaratsiyada erkinlik tushunchasiga izoh berilgan va uni qanday hollarda cheklash mumkinligi qayd etilgan: "Erkinlik boshqa birovga zarar yetkazmasdan hamma narsani olishdan iborat; shu tarzda har bir insonning tabiiy huquqlarini amalga oshirishi faqat jamiyatning boshqa a'zolarining xuddi shu huquqlardan foydalanishni ta'minlovchi me'yorlar bilan chegaralanishi mumkin. Ushbu me'yorlar faqat qonun bilan belgilanadi" [6, 595-596-b.].

Deklaratsiyada barcha insonlarning diniy e'tiqodidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi haqidagi g'oya o'z aksini topgan. Unda alohida ta'kidlanishicha, hech kim o'zining diniy qarashlari, ularni bajarishi Qonun bilan joriy etilgan jamoat tartibini buzmasa, jabrlanishi mumkin emas.

Yana bir konstitutsiyaviy hujjat – 1946-yil 27-oktabrda qabul qilingan Konstitutsiyaning muqaddimasida fransuz xalqi yana bir bor har bir inson dini va e'tiqodidan qat'i nazar, ajralmas va muqaddas huquqlarga ega ekanligi qayd etilgan; Fransiya dengiz orti xalqlari bilan irqi va dinidan qat'i nazar, huquq va majburiyatlar tengligiga asoslangan ittifoq tuzadi [6, 599-b.].

Turkiya Respublikasi Osiyo g'arbi-da, qisman Yevropa janubida joylashgan demokratik davlat. Turkiya aholisining mutlaq ko'pchiligi islom diniga e'tiqod qiladi. Shu bilan bir qatorda, bu davlatda xristianlik, buddaviylik va boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilar ham bor [11, 34-36-b.]. Turkiya Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida qayd etilishicha, Turkiya Respublikasi demokratik, dunyoviy va ijtimoiy-huquqiy

davlatdir. Barcha fuqarolar Konstitutsiya-ning 10-moddasiga binoan, dinidan qat'i nazar, qonun oldida tengdir; 14-moddasiga ko'ra, hech kim diniy e'tiqodini ro'kach qilib, Konstitutsiya bilan kafolatlangan huquq va erkinliklarni suiiste'mol qilishi mumkin emas; 24-moddasiga ko'ra, har kim vijdon, diniy e'tiqod va ishonch erkinligiga ega; ibodat qilish, diniy rasm-rusumlar, marosimlar o'tkazish erkin, agar ular mamlakat va millat birligiga, Turkiya davlati va respublikasi-ning voqeligiga tahdid solmasa, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini bekor qilishga sabab bo'lmasa, davlat hokimiyatining bir kishi, ijtimoiy qatlam qo'liga o'tishi, bir sinf hukmronligini o'rnatish, til, irq, din va e'tiqod bo'yicha farqlashga asos bo'lmasa; hech kimni ibodat amallarini bajarish, diniy rasm-rusumlarni ado etish, marosimlar va bayramlarda ishtirok etishga majburlash mumkin emas; diniy va axloqiy ta'lim berish hamda o'qitish davlat nazorati ostida amalga oshiriladi, boshlang'ich va o'rta ta'lim muassasalarida diniy va axloqiy fanlarni o'qitish majburiy, boshqa turdagi diniy ta'lim olish va o'qish masalasi har kimning ixtiyoriga havola; go'daklarga ta'lim berish va ularni o'qitish masalasi ularning qonuniy vakillari tomonidan hal qilinadi; hech kim dindan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishi, diniy his-tuyg'ularini suiiste'mol qilishi mumkin emas; 25-moddasiga binoan, har kim fikrlash va e'tiqod erkinligiga ega, fikrlashi va e'tiqodi uchun hech kim ta'qib etilishi mumkin emas [12].

Yaponiya Sharqiy Osiyoda joylashgan, eng rivojlangan demokratik, ko'p konfessiyali davlatlardan biri. Mamlakat aholisi sintoizm, buddaviylik, nasroniylik va boshqa dinlarga e'tiqod qiladi [13]. Yaponiya Konstitutsiyasining 14-moddasiga binoan, barcha fuqarolar qonun oldida teng va irqi, dini, jinsi, ijtimoiy holati, shuningdek, kelib chiqishiga ko'ra, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan kamsitilishlari mumkin emas. 19-moddasiga ko'ra, fikrlash va vijdon erkinligi buzilmasli-

gi kerak. 20-moddasiga ko'ra, din erkinligi barcha uchun kafolatlanadi. Diniy tashkilotlardan birortasi davlatdan hech qanday imtiyoz olmasligi lozim va siyosiy hokimiyatdan foydalana olmaydi. Hech kim diniy tadbirlar, bayramlar, tantanali marosimlar yoki rasm-rusumlarda ishtirok etishga majbur etilishi mumkin emas. Davlat va uning organlari diniy ta'lim va biror-bir diniy faoliyatni amalga oshirishdan tiyilib turilishi kerak [6, 667-668-b.].

Chexiya Respublikasi 1993-yilning 1-yanvarida sobiq Chexoslovakiya Federativ Respublikasining ikki mustaqil – Chexiya Respublikasi va Slovakiya Respublikasiga bo'linishi natijasida tashkil topgan, Markaziy Yevropada joylashgan, ko'p millatli va ko'p konfessiyali suveren, yaxlit va demokratik huquqiy davlat. Chexiya aholisi Rim kato-liklari, yevangel cherkovi, chex birodarlari, Chexoslovakiya guschilar cherkovi, Siliziya yevangel cherkovi, Augsburgs e'tiqodchilari, Sharq provaslav cherkovi va iego va shohid-lari kabi diniy konfessiyalarga e'tiqod qila-di [14]. Ushbu davlatda insonning asosiy huquqlari va erkinliklari, shu jumladan, vijdon erkinligiga oid munosabatlar 1992-yil 16-dekabrda qabul qilingandan so'ng qator o'zgartirishlar kiritilgan Chexiya Respublika-si Konstitutsiyasining tarkibiy qismi bo'lgan 1991-yil 9-yanvarda qabul qilingan Chexiya Respublikasi Asosiy huquqlar va erkinliklar xartiyasi bilan tartibga solinadi.

Ushbu Xartiyaning 2-moddasiga binoan, "Davlat demokratik qadriyatlarga asoslangan va mutlaq mafkura bilan ham, diniy e'tiqod bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin emas". Uning 3-moddasida qayd etilishicha, asosiy huquq va erkinliklar barchaga jinsi, irqi, tanasining rangi, tili, e'tiqodi va dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, milliy yoki etnik ozchilikni tashkil qilganlarga mansubligi, mulkiy ahvoli, urug'i yoki boshqa holatlaridan qat'i nazar kafolatlanadi. So'nggi norma Xartiyaning 15-mod-dasida yanada aniqlashtirilgan holda ba-

yon etilgan. Unga ko'ra, "Fikr, vijdon, e'tiqod erkinligi kafolatlanadi. Har kim o'z dini yoki e'tiqodini o'zgartirish yoxud hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega... Hech kim harbiy xizmatni o'tashga, bu e'tiqodlariga zid bo'lsa, majburlanishi mumkin emas. Tafsilotlar qonun tomonidan o'rnatiladi" [6, 640-641, 645-b.].

Xartiyaning 16-moddasida diniy ibodat, diniy tashkilotlar, diniy ta'lim, diniy e'tiqodni cheklash asoslariga oid qoidalar o'z aksini topgan [6, 645-b.]:

1) har kim o'z diniga sig'inish yoki e'tiqodiga amal qilishni shaxsan yoki boshqa shaxslar bilan birgalikda xususiy tarzda yoki oshkor sig'inish, ta'lim olish, diniy urf-odatlar yoki marosimlarga rioya etish yo'li bilan erkin amalga oshirish huquqiga ega;

2) cherkovlar va diniy jamoalar (spolenosti) o'z ishlarini mustaqil boshqaradilar, jumladan, o'z organlarini ta'sis etadilar, o'z ruhoni shaxslarini belgilaydilar, davlat organlaridan mustaqil monastirlar va boshqa cherkov muassasalariga asos soladilar;

3) davlat maktablarida dinga o'qitish shartlari qonun tomonidan belgilanadi;

4) ko'rsatilgan huquqlarni amalga oshirish qonun tomonidan, agar bunday choralar demokratik jamiyatda jamoat xavfsizligi va tartibi, salomatlik va axloqiy yoxud boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish uchun zarur bo'lsa, cheklanishi mumkin.

Estoniya Yevropaning shimoli-g'arbiy qismida Boltiq dengizi bo'yida joylashgan dunyoviy demokratik, ko'p millatli va ko'p konfessiyali davlat. Mamlakat aholisining mutlaq ko'pchiligi hech qaysi dinga e'tiqod qilmaydi. Aholisining ma'lum bir qismini katoliklar, protestantlar, lyuteranlar tashkil qiladi [15, 16]. Estoniya Respublikasi Konstitutsiyasining fuqarolik masalalariga bag'ishlangan 8-moddasiga binoan, hech kim e'tiqodi tufayli Estoniya fuqaroligidan mahrum etilishi mumkin emas. Uning 12-moddasida barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, hech kimni

diniy, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari uchun kamsitish mumkin emasligi, diniy yoki siyosiy adovat qo'zg'atish, ko'rolmaslik, zo'ravonlik, kamsitish taqiqlanishi va qonunga binoan jazolanishi qayd etilgan.

Konstitutsiyaning 40-moddasiga binoan: "Har kim vijdon, diniy e'tiqod va so'z erkinligiga ega. Cherkov va diniy jamoaga mansublik erkindir. Davlat cherkovi yo'q. Har kim xoh bir o'zi, xoh boshqalar bilan birgalikda, ommaviy yoki xususiy tarzda diniy marosimlarda qatnashishda erkin, agar bu jamoat tartibi, sog'liq yoki axloqqa zarar yetkazmasa". 41-modda bo'yicha "Har kim o'z fikri va e'tiqodiga sodiq qolish huquqiga ega. Hech kimni ularni o'zgartirishga majburlash mumkin emas. Insonning e'tiqodi huquqbuzarlikni oqlashga xizmat qilmaydi. Hech kim o'z e'tiqodi uchun yuridik javobgarlikka tortilishi mumkin emas". 42-moddasiga ko'ra: "Davlat muassasalari, mahalliy o'zini o'zi boshqaruvchilar va ularning mansabdor shaxslari Estoniya fuqarosining erk-irodasiga qarshi uning e'tiqodlari haqida ma'lumotlar to'plashga ham, saqlashga ham haqqi yo'q" [17].

Ko'pchilik dunyoviy demokratik davlatlardan farqli o'laroq, Estoniya Konstitutsiyasining 45-moddasida har kim o'z e'tiqodi g'oyalari tarqatish huquqiga ega ekanligi va bu huquq qanday hollarda cheklanishi mumkinligi haqidagi qoidalar belgilab qo'yilgan. Ushbu moddada qayd etilishicha, har kim o'z g'oyalari, fikr-mulohazalari, e'tiqodi va boshqa ma'lumotlarni og'zaki, yozma va tasviriy yoki boshqa usullar bilan erkin tarqatish huquqiga ega. Ushbu huquq qonun bilan jamoat tartibi, axloq, boshqa kishilarning huquq va erkinliklari, sog'ligi, qadr-qimmati va obro'yini muhofaza qilish maqsadida cheklanishi mumkin. Qonun bilan ushbu huquq davlat va tijorat sirlaridan o'zining xizmat vazifasi tufayli xabardor bo'lgan davlat va o'zini o'zi boshqarish organlari xizmatlari uchun, shuningdek, ma'lumotlar ular tomonidan konfederal tartibda oilaviy, boshqa kishilarning shaxsiy hayoti va odil sudlov

manfaatlarini muhofaza qilish maqsadida olingan bo'lsa, cheklanishi mumkin [17].

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoda joylashgan, rivojlanayotgan, ko'p millatli va konfessiyali dunyoviy davlat. O'zbekiston aholisining mutlaq ko'pchiligi islom diniga e'tiqod qiladi. Shuningdek, ushbu mamlakatda pravoslavlar, katoliklar, baptistlar va boshqalar yashaydi [18, 19]. O'zbekiston Konstitutsiyasining 18-moddasiga binoan, barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, dinidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. 31-moddasiga ko'ra, hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. 61-moddasiga ko'ra, diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarining faoliyatiga aralashmaydi. 57-moddasida qayd etilishicha, konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi Respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi urush, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarining milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalar hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi. Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish mumkin emas.

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqorida nomlari qayd etilgan davlatlar konstitutsiyalaridagi davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalarning qiyosiy tahlili asosida dunyoviy davlatlar uchun xos bo'lgan umumiy, o'xshash va juz'iy xususiyatlarni ko'rsatish mumkin.

Davlat va din o'rtasidagi munosabatlar bo'yicha konstitutsiyaviy normalar bayon qilingan davlatlarning mutlaq ko'pchiligi uchun xos bo'lgan umumiy xususiyatlar sifatida quyidagilarni qayd etish o'rinli:

- biror-bir dinning rasmiy (davlat) din sifatida e'tirof etilmagani, mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan barcha diniy konfessiyalar tashkilotlarining qonun oldida tengligi kafolatlanganligi;

- fuqarolarning diniy e'tiqodidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi amalda ta'minlanganligi;

- fuqarolarning biror dinga e'tiqod qilishi yoki hech bir dinga e'tiqod qilmasligi biror imtiyozga ega bo'lish huquqini bermasligi yoki huquqini cheklashga asos bo'lmasligi;

- muqaddas kitoblar va diniy normalarni o'zida aks ettirgan boshqa manbalarning huquq manbayi sifatida e'tirof etilmasligi;

- davlat ta'lim tizimidan diniy ta'lim tizimining ajratilganligi (bundan Germaniya va Turkiya mustasno);

- diniy e'tiqodi qo'lga qurol olishga monevik qiladigan fuqarolarning harbiy xizmat o'rniga alternativ (muqobil) xizmatni o'tashi mumkinligi;

- dinga qarshi tashviqot va targ'ibot olib borish mumkin emasligi;

- dinning davlatdan, siyosatning dindan ajratilganligi;

- davlat va uning organlari hamda mansabdor shaxslarning diniy tashkilotlarning ichki ishlariga aralashmasligi;

- diniy tashkilotlar va diniy ulamolar (ruhoniylar)ning davlat ishlariga aralashmasligi va boshqalar.

Ayrim davlatlar konstitutsiyalaridagi davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalarda o'xshashliklarni Germaniya Asosiy Qonunining 7-moddasiga binoan, diniy ta'lim umumiy maktablar (davlat maktablari)da majburiy fan hisoblanishida, Turkiya Konstitutsiyasining 24-moddasiga ko'ra, boshlang'ich va o'rta ta'lim muassasalarida diniy fanlarni o'qitish majburiy ekanligida, Fransiya va Turkiya Konstitutsiyalarining 1-moddasida ushbu davlatlarning dunyoviy davlat ekanligi alohida qayd etilganida ko'rishimiz mumkin.

Davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi konstitutsiyaviy normalarning juz'iyeligiga quyidagi davlatlar misol bo'ladi.

AQSh Konstitutsiyasida vijdon (din) erkinligiga oid bittagina modda bo'lib, u ham umumiy ko'rinishda bayon etilgan; Kongress dinni mustahkamlaydigan yoki din erkinligini taqiqlovchi qonun qabul qilishga haqli emas; Germaniya Asosiy Qonunining 33-moddasiga binoan, davlat xizmatchilarining huquqi diniy e'tiqodi bilan bog'liq emas; Polsha Konstitutsiyasining 53-moddasida vijdon va din erkinligi nimalarni qamrab olishi batafsil bayon qilingan; O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasiga ko'ra, diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning tuzilishi taqiqlanadi; Estoniya Konstitutsiyasining 8-moddasiga ko'ra, hech kim diniy e'tiqodi tufayli Estoniya fuqaroligidan chiqarilishi mumkin emas, 41-moddasiga binoan, insonning e'tiqodi huquqbuzarlikni oqlashga xizmat qilmaydi, hech kim o'z e'tiqodi uchun yuridik javobgarlikka tortilmaydi va boshqalar.

O'rganib chiqilgan davlatlar Konstitutsiyalaridagi davlat va din o'rtasidagi munosabatlarga oid normalar milliy qonunlar va qonunosti hujjatlarida xalqaro huquqiy hujjatlarning normalari talablari hisobga olinib, yanada mazmunan boyitilgan, rivojlantirilgan va aniqlashtirilgan holda o'z aksini topgan.

Xususan, ularda qonunning maqsad va vazifalari, u bilan tartibga solinadigan munosabatlar doirasi, qonunda qo'llaniladigan atamalar izohi, vijdon erkinligi va diniy e'tiqod erkinligining huquqiy kafolatlari, fuqarolarning diniy ta'lim olishini ta'minlashning tashkiliy jihatlari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va xorijlik fuqarolarning vijdon erkinligi va diniy e'tiqod erkinligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari, diniy tashkilotlarni tashkil qilish va ro'yxatdan o'tkazish tartibi, ular bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlari, konfessiyalararo aloqalar, diniy tashkilotlarning mulki, moliyaviy manbalari, faoli-

yatining asosiy yo'nalishlari, huquq va majburiyatlari, faoliyatini to'xtatish va tugatish asoslari, xorijiy dindosh tashkilotlar bilan aloqalari kabilar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi normalar belgilab qo'yilgan.

Xulosalar

Shu munosabat bilan hozirgi davrda ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy sohalarida diniy omilning ta'siri kuchayib borayotgani, mamlakatimizda konstitutsiyaviy islohotlar o'tkazishga qizg'in tayyorgarlik ko'rilayotganini inobatga olib, ilmiy jamoatchilikning alohida diqqat-e'tibori quyidagilarga qaratilishini dolzarb deb hisoblaymiz:

birinchidan, davlat va din o'rtasidagi munosabatlarga oid xalqaro va mintaqaviy hujjatlarni chuqur va atroflicha ilmiy tahlil qilish, ularning normalariga sharhlar yozish, davr talabidan kelib chiqib, mazkur hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

ikkinchidan, davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalar genezisi va evolyutsiyasiga bag'ishlangan keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

uchinchidan, hozirgi davrda amalda bo'lgan davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi xorijiy, shu jumladan, dunyoviy davlatlar qonunchiligini qiyosiy o'rganish, bu borada erishilgan yutuqlardan milliy qonunchilikni takomillashtirishda tanqidiy foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar berish;

to'rtinchidan, hozirgi davrda dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga harakat qilayotgan ijtimoiy-siyosiy kuchlarning faollashgani, ularning dindan, ayniqsa, islomdan niqob sifatida foydalanayotgani, mintaqalar va xalqaro xavfsizlikka jiddiy tahdid solayotganini inobatga olib, "Diniy niqob ostidagi terrorchilikka qarshi kurash to'g'risida"gi konvensiya loyihasini ishlab chiqish va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilinishi davr talabidir.

REFERENCES

1. Mirkov V., Mladinovich I. Types of relationships between the state, religion and religious organizations in Europe – an attempt to develop a new classification. Available at: <https://scindeks-clanci.ceon.rs/data/pdf/0003-2565/2016/0003-25651603241M.pdf/>.
2. Cliteur P. State and religion against the backdrop of religious radicalism. 2012. Available at: <https://academic.oup.com/icon/article-pdf/10/1/127/2024368/mor070.pdf/>.
3. Ponkin I.V. Pravovyye osnovy svetnosti gosudarstva i obrazovaniya [Legal foundations of the luminosity of the state and education]. Moscow, Pro-Press, 2003, pp. 13–89.
4. Islam i svetsoye gosudarstvo [Islam and the secular state]. Proceedings of the International Scientific and Theoretical Symposium. 2002, June 5-6. Tashkent, 2003, pp. 23–112.
5. Svoboda sovesti i religioznaya neterpimost' v sovremennom mire [Freedom of conscience and religious intolerance in the modern world]. Moscow, Russian Association for the Protection of Religious Freedom, 2018, pp. 116–134.
6. Jahon konstitutsiyalari [World constitutions]. Responsible editor, foreword and preface to Constitutions A.Kh. Saidov. Tashkent, National Center of the Republic of Uzbekistan on Human Rights, 2022.
7. Robbers G. Gosudarstvo i tserkov' v Germanii [State and Church in Germany]. State and Religion in the European Union. Moscow, 2009, pp. 127–148.
8. Saidov A.X. Germaniya Federativ Respublikasining Asosiy Qonuniga 70 yil [70 years of the Basic Law of the Federal Republic of Germany]. Basic Law of the Federal Republic of Germany. Tashkent, Akademnashr, 2019, pp. 16–17.
9. Rynkovskiy M. Gosudarstvo i tserkov' v Pol'she [State and Church in Poland]. State and Religion in the European Union. Moscow, 2009, pp. 447–470.
10. Badevan-Godme B. Gosudarstvo i tserkov' vo Frantsii [State and Church in France]. State and Religion in the European Union. Moscow, 2009, pp. 593–630.
11. Svoboda sovesti i religioznaya neterpimost' v sovremennom mire [Freedom of conscience and religious intolerance in the modern world]. Moscow, Russian Association for the Protection of Religious Freedom, 2018.
12. Constitution of the Republic of Turkey. Available at: <https://legalns.com/download/books/cons/turkey.pdf/>.
13. Religion in Japan. From Wikipedia, the free encyclopedia. Available at: <https://ru.wikipedia.org/>.
14. Tretera I.R. Gosudarstvo i tserkov' v Chekhii [State and Church in the Czech Republic]. State and Religion in the European Union. Moscow, 2009, pp. 631–656.
15. Kiviorg M. Gosudarstvo i tserkov' v Estonii [State and Church in Estonia]. State and Religion in the European Union. Moscow, 2009, pp. 675–700.
16. Religion in Estonia. From Wikipedia, the free encyclopedia. Available at: <https://ru.wikipedia.org/>.
17. Constitution (Basic Law) of the Republic of Estonia. Available at: <https://www.juristaitab.ee/ru/zakonodatelstvo/konstituciya-osnovnoy-zakon-estonskoy-respubliki/>.
18. Hasanboev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari [Relations between the state and religion in Uzbekistan: religious organizations, currents, current directions of ideological struggle]. Tashkent, Tashkent Islamic University, 2014, pp. 30–108.
19. Religion in Uzbekistan. From Wikipedia, the free encyclopedia. Available at: <https://ru.wikipedia.org/>.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

3 / 2022

BOSH MUHARRIR:

Tashkulov Akbar Djurabayevich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d., dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 10.10.2022-yilda tipografiyaga topshirildi. Qog'oz bichimi: A4. Shartli 16,50 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 163. TDYU tipografiyasida chop etildi.